

INSON va qonun

2023-YIL
8-AVGUST
SESHANBA

№ 31 (1391)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!




"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



HAMMADA TALABA BO'LISH ORZUSI

OMAD SENGA, ABITURIYENT!



4-betda o'qing

Kutubxonachilarga qo'shimcha haq to'lanmagan

Qibray tuman adliya bo'limi tomonidan 2023-yilning 6 oyi mobaynida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari manfaatini ko'zlab sudlarga kiritilgan 30 dan ziyod da'vo arizalarining 98 foizi qanoatlantirilgan.



6-betda o'qing

Hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydi

Davlat o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmini samarali ro'yobga chiqarish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bulardan eng muhimi sifatida yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishini e'tirof etishimiz mumkin...



7-betda o'qing

Yana snos, yana tovon puli...

Xalqimizda "Yaxshidan bog' qoladi", degan naql bor. Bu shubhasiz, insonlarni umri davomida yaxshilik qilishga, ezgu ishlarga bosh bo'lishga undaydigan ibratli aqida...

Peshlavhalardagi yoshlarga dalda bo'luvchi shunday so'zlarni o'qib, yurakdagi orzusi poytaxtgacha yetaklab kelgan abituriyentlar bilan suhbatlashgimiz keldi. Yoshlarning aksariyati imtihonga yolg'iz kelmagan. Kelajakka umid va ishonch bilan boqib, erta tongdan test topshirish uchun otlangan abituriyentga dalda bo'lay deb hamrohlik qilgan ota-ona-yu, amma-xola, do'st-dugonasi ham bugun hayajonda. Test topshiradigan kungacha imtihonga qancha tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa, bugun bu mashaqqatlar uning bilimlarini sinovdan o'tkazadigan kun!

Kunning issig'ida panaroq joy izlab kimdir anhor bo'yidagi tamaddixonaga kirgan, kimdir muzqaymoq tutgan, yana kimdir yuragiga qil sig'may, qo'lidagi yelpig'ich bilan yelpingani-yelpingan.

E'tiborimizni tortgan holat – kutish joylarida ota-onalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bo'ldi. Ota-onalar, abituriyentlarning yaqinlari test jarayonlarini kuzatib borishi uchun katta-katta monitor ekranlari o'rnatilgan, ochiq maydonlarga quyoshdan pana qilish uchun qo'lbola soyabonlar o'rnatib chiqilgan, stullar turnaqator qilib terilgan, tibbiy xiz-

mat xodimlari ham shu yerda. Kuzatuvchi maqomidagi volontyor talaba yoshlarning ochiq hududda issiqda qolib ketmasligi uchun soya joylar tanlangan, zamonaviy, suv purkab turadigan ventilyatorlar qo'yilgan. Shunday bo'lsa-da, havo baribir issiq, ichkaridagilardan ko'ra, tashqaridagilar bezovta, betoqat...

Shunday paytda kimdir childirma chalib, qo'lidagi soziga mos ohangda qo'shiq aytib bersa, nima deysiz?! Tashkilotchilar kutib turish joylarida o'tirganlar zerikib qolmasin, deb ana shunday imkoniyatlarni ham tashkil qilishibdi.


Karantin sababli ehtiyotkorlik yuzasidan keyingi yillarda test sinovlari ochiq hududlarda o'tkazilayotgan edi. Bu yilgi imtihonlar yopiq hududlarda o'tkazilmoqda.

1-avgustdan OTMlarga kirish uchun imtihonlar boshlandi. O'zbekiston bo'ylab 72 ta binoda test sinovlari bo'lib o'tmoqda. Toshkent shahrida kirish imtihonlari bir vaqtning o'zida shaharning bir nechta obyektlarida – "O'zekspomarkaz"ning ko'rgazma pavilonlarida, Oliy o'quv yurtlararo sport majmuasi va "Yoshlik" sport markazida o'tkazilmoqda.

3-betda o'qing

2 SO'Z – TANLOV G'OLIBIGA

Bilamizki, Konstitutsiya eng yuqori yuridik kuchga ega hujjat hisoblanadi. Agar qaysidir normativ-huquqiy hujjat normasi qarama-qarshi bo'ladigan bo'lsa ham, Konstitutsiya ustun hisoblanadi. Konstitutsiyaning muqaddimasidan to oxirigacha inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ko'p islohotlar amalga oshirilayotgani hammamizga ma'lum. Konstitutsiya yani o'z hayotim bilan bog'lasam, Asosiy Qonunimiz hayotimda juda katta ahamiyatga ega bo'lganiga guvoh bo'laman.



KONSTITUTSIYA – SHA'NIM VA QADIRIM HIMOYACHISI

Men tug'ilganimda menda Konstitutsiyada belgilangan yashash huquqim va ota-onamning meni voyaga yetgunimga qadar tarbiyalash majburiyati yuzaga keldi. Ulg'aydim, men ta'lim olish huquqimdan foydalanishni boshladim. Maktabda o'qiyotgan paytimda otam vafot etdi. Onam Konstitutsiyada belgilangan huquqlaridan foydalanib boquvchisini yo'qotganlik uchun davlat hisobidan qo'llab-quvvatlandi, singlim bilan voyaga yetguncha davlatdan ijtimoiy ta'minot oldik.

Maktabda o'qidim, 9-sinfni bitirdim va Toshkent shahridagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyga tanlov asosida o'qishga kirdim. Litseyni tugatib, JIDuga o'qishga hujjatlarimni topshirdim. Lekin 2 yil qatorasiga o'qishga kirolmadim. Tengdoshlarimning ko'pchiligi o'qishga kirdi men qattiq xafa bo'ldim (birinchi yili 197,5 ball oldim bu balni olish men uchun oson bo'lmadi) keyin adolatga ishonmay qoldim, lekin onam meni yana ruhlantirib, bu yil albatta o'qishga kirasam, deb Toshkentga jo'natdi.

O'sha yili Toshkent davlat yuridik institutiga o'qishga kirdim (bu gal ham 197 ball oldim va adolatga ishonmay boshladim), bakalavr darajasini tugatdim va o'sha yili magistraturaga o'qishga hujjat topshirdim. O'qishga kirdim, 2 yildan keyin magistraturaga ega bo'ldim.

O'qishni bitirib, ish qidirdim. Konstitutsiyada belgilangan mehnat qilish huquqim yuzaga keldi. Oldin tumandagi soliq organida ish boshladim. 2018-yil sentabrdan adliya bo'limida ishlayapman. Adliya bo'limi men uchun katta maktab. Adliya bo'limining normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar jirosini ta'minlash uchun jamiyatimizning deyarli ko'pchilik sohaligacha kirdik deb o'ylayman. Bu borada ishlarimiz davom etadi.

Ish faoliyatimda, shaxsiy hayotimda ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida belgilangan "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablari-ga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish" va 45-moddasida belgilangan "Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanadi" deb belgilangan huquqlarimdan to'la foydalanib kelayapman.

Ushbu moddada har kim ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga egaligi ko'rsatilgan. Faoliyatimiz davomida turli xil holatlarga duch kelamiz, turmush sharoitida og'ir ahvolga tushgan fuqarolar bilan ham hamsuhbat bo'lamiz. O'lis va chekka hududlarda uyma-uy yurgan holda, shuningdek, fuqarolar bilan sayyor qabullarda, mansabdor shaxslarning ommaviy qabullarida ularning murojaatlarini tinglaymiz. Murojaatchilarning deyarli ko'pchiligida ishsizlik muammosi.

Ayniqsa, ayollarning va yoshlarning bandligini ta'minlash – dolzarb masala. Ish bilan ta'minlashda ayrim hokim yordamchilarining tutayotgan yo'li muammoning yechimi emasligini hayot haqiqatlari ko'rsatib turibdi. Bitta xonadonga 10 ta quyon, 10 ta jo'ja olib borib, ish bilan ta'minlandi, tadbirkorlik yo'lga qo'yildi, deyish bilan ishsizlikni kamaytirish imkonsiz. To'g'ri, muhtoj kishilar o'sha 10 ta jo'ja bilan o'z faoliyatini yo'lga qo'ysa ham bo'lar, lekin shu o'nta jo'ja bir kunda qirilib ketsa, ular dardini kimga aytadi?! Hayotimizda ana shunday yechimini kutayotgan muammo-

lar ham yo'q emas. Bu borada olib borilayotgan ishlar keng qamrovli. Kambag'allikni qisqartirish borasida yangidan-yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu kabi muammolar ham sekin-asta yechilishiga ishonamiz.

Ushbu moddada yangi bir norma – homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi, degan normani hayotga real joriy etishda ham muammolar yetarli.



Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ishdan erda ketadi, erkaklarga qaraganda ish unumdorligi kam bo'ladi, bu xodimga kam oylik bersak ham bo'ladi deyidigan yoki shu sababli ayollarni ishga olishni xohlamaydigan ayrim ish beruvchilarga bu normaning Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi yoqmaydi, albatta. Lekin jahonda gender tengligi bo'lishi shart, deb bong urilayotgan bir paytda bunga amal qilinishi majburiy va shartdir.

Yana o'zimga qaytsam, o'qishlarni bitirib, turmush qurdim. Konstitutsiyaning oilaga bag'ishlangan bobidagi "nikoh tomonlarning teng huquqliligi va ixtiyoriyligiga asoslanadi" degan qoidasiga amal qilgan holda qonuniy nikohdan o'tdik. Farzandli bo'ldim. Farzandim Toshkentda tug'ilgani

sababli eksterritorial tamoyil asosida tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani Toshkent shahridan oldim. Menda shu kundan boshlab Konstitutsiyamizda belgilangan ota-ona majburiyati paydo bo'ldi.

Konstitutsiyaga ko'ra, "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovozigacha – referendumga qo'yiladi.". Hammamizga ma'lum, shu yil 30-aprel kuni umumxalq ovoz berish referendumini bo'lib o'tdi. Ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi ovoz berdi va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan deb hisoblandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ko'plab o'zgarishlar bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi hududida yashaganligim sababli bu o'zgarishlardan quvondim, albatta. Men va men kabi shu hududda yashovchi aholi uchun judayam ahamiyatli bo'lgan masala Konstitutsiyaning 49-moddasida o'z aksini topdi. "Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi", degan norma nafaqat hudud aholisi, balki O'zbekistonning jamiki hududi aholisi uchun katta ahamiyatga egadir. Sababi, ushbu mintaqaning ekologik tizimi O'rta Osiyodagi tabiiy iqlim sharoitiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, albatta.

Uzoq yillardan beri Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat dunyo hamjamiyatini o'ylantirayotgan muammolardan biriga aylangani hech birimizga sir emas. Hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilash va Orolbo'yi mintaqasidagi xalqning yashash sharoitlarini, turmush darajasini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Orol dengizi fojiasi va uning oqibatlari hatto BMT minbarlarida ham qayta-qayta ta'kidlanmoqda.

Orol bir paytlar to'lib-toshib oqar edi, unda baliqlar sakrab-sakrab suzar edi. Hududda baliq mahsulotlarini qayta ishlovchi konserva zavodlari bor edi, to'liqin kuchli edi, xuddiki oqizib ketadigandek... Lekin shuncha suv bir kunda qurib qoldi, bu Xudoning karamatimi yoki boshqami, bilmay qoldik. "Bir qariya aytib ketgan, Orolga 70 yildan keyin yana shunday suv qaytadi" deb aytadilar onam. Orolbo'yi masalasida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan norma – Orolbo'yi fojiasini yumshatish va bu boradagi ishlarni jadallashtirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan normalar fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini oliy yuridik hujjatda belgilangan darajada himoya qilishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Baxitil MATJANOVA,
Qonliko'l tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

© Davomi. Boshlanishi 1-betda



Hammada talaba bo'lish orzusi

OMAD SENGA, ABITURIYENT!

“O'QIGAN ODAM HAYOTDA QIYNALMAYDI...”


– O'qigan odam hayotda qiynalmaydi, bizga o'xshab umri ketmon ko'tarib, dalada o'tmaydi-da harqaldy. O'z o'rnini, ishini topib ketadi, – deydi bo'kalik Jumaboy aka Bekbo'tayev.

Halol mehnatdan qochmaydigan, umri mehnatda o'tgan Jumaboy aka farzandining taqdiriga befarq bo'lmay, saratonning jazirama issig'ida, poytaxtdagi test sinovlari o'tayotgan “O'zeks-pomarkaz” gacha kelibdi. Hamma ota-onalar soyarog' joylardagi o'rindiqalarda kutib o'tirishsa, suhbatdoshimiz kutishga sabri chidamay, atrofini aylanib yurgan ekan.

– O'g'lim juda tirishqoq bola. Milliy universitetga hujjat topshirdi. Akasi Rossiya ishlagan ketgan, o'zim mavsumiy ishlarda Qozog'istonda ham ishlab kelaman. Dehqonchilik qilamiz. Bu yil makkajo'xori ekdik. Jo'xorining donasini ming so'mdan sotsak ham ancha pul bo'ladi. Topish-tutishim yomon emas. Avvalo, o'mad bersin, lekin kontraktga kirsam ham o'qitaman, o'qigan odam kam bo'lmaydi, deydi suhbatdoshimiz dilidagini yashirmay.

– “Oq machit”ning oldida ekan imtihon bo'ladigan joy. Nabiram bilan bolajonimni duo qilib keldik, – deydi yuzlaridan nur yog'ilib turgan farishtali onaxon qo'lidagi

quroqli yelpig'ichini aylantirganicha. – Bugun zamon o'qiganniki, nabiram to'rtta chet tilini biladi! Yurist bo'lmoqchi, ota-onasi ham, biz ham qarshi bo'lmadik. To'rt farzandimni ham o'qitganmiz, oliy ma'lumotli, Xudoga shukur. O'g'lim bilan kelinim ishda, o'zim kelaverdim bir aylanib kelay deb. Hammaning bolasi ham o'qib, ilmi bo'lsin. Dunyomiz tinch, yurtimiz obod bo'laversin, bolam.



“IJODIY IMTIHONDAN 63 BALL OLDIM...”

– Bolalikdan telejurnalist bo'lishni orzu qilardim, – deydi abiturient Hurnora Otajonova. – Hozir shu sohada ishlayman ham, lekin oliy ma'lumotli bo'lganimcha yo'q. Taqdir ekan, maktabni tugatganimdan keyin turmushga berishdi. Keyinchalik kollejda sirtqi bo'limda o'qib, o'rta maxsus ma'lumot oldim. Bu orada uch farzandli bo'ldim, baxtliman, lekin birgina armonim – oliy ma'lumotli bo'lish! Ijodiy imtihondan

63 ball oldim, test sinovi natijalaridan ham umidim katta. Ishlaganim uchun kunduzgi yo'nalishda o'qiy olmayman. Shuning uchun kechki ta'limga topshirdim. Nasib bo'lsa, grantga kirishim kerak! Lekin kontrakt bo'lsa ham o'qiyman, o'qishim kerak!

“QISHLOQ YOSHLARIGA ALOHIDA KVOTALAR AJRATILISHI KERAK!”

– Agrar universitetga ikkinchi yil hujjat topshirishim, – deydi chinzo'lik O'tkir Alimatov biz bilan suhbatda. – O'zim yerning tilini tushunaman, bu joyga buni eksam bo'ladi, bu joyda bu ekin yaxshi hosil bermaydi, deb tuproqning hosildorlik darajasini bemalol farqlay olaman. Lekin baribir o'qishim kerak. Bugun dehqonchilik, bog'dorchilik qilish oson bo'lmay qoldi. Ekologiya o'zgardi, suv yetishmovchiligi, noqulay ob-havo sharoiti rejalaringizni o'zgartirib yuboradi. Qishloqda katta bo'lganmiz, suvchilikdan tortib paxta bilan g'allaning, qovun-tarvuzdan tortib, sabzavat yetishtirishning ham agrotexnikasini tushunaman. Lekin yerlar klasterlarga o'tib ketdi. Katta-katta yerlar diplom bor, texnikasi borlarga berildi. Ancha yil bo'ldi, o'rtog'im bilan klasterda ishchi bo'lib ishlaymiz. Oyligimiz ko'p emas, lekin halol mehnatdan kelgan, barakasi bor. Oilada ko'pchilikmiz, maktabni bitirib, boshqa o'qimadim. Oila qurdim, uchta farzandim bor.

Endi o'ylab qarasam, qancha yoshlarimiz bugungi yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmadi. Qo'limda diplomim bo'lsa, qishloq xo'jaligining zamonaviy yutuqlarini hayotda qo'llasam, deymen. Qishloqlarda ham tomorqaga ekin ekib, yetishtirish oson bo'lmay qoldi. Suv taqchilligi dehqonlarning sillasini quritayapti. Zamonaviy tomchilatib sug'orish texnologiyalarini hamma ham bilmaydi. Yo bunga mablag'i yo'q, yo bilim yetishmaydi. Bunaqa sharoitda qishloqlarda yashash oson emas. Agronomlar kam. Qovun-tarvuzga, pomidor-ga ham qurt tushib ketyapti. Bugun dehqon bo'lish uchun ham katta bilim kerak. Tajribaning o'zi kamlik qiladi, shuning uchun o'qimoqchiman-da, opa. Ishsizlik o'rinlarini, dehqonchilikning bugungi murakkabliklarini hisobga olib, agrar sohada o'qimoqchi bo'lgan qishloq yoshlariga alohida kvotalar ajratilishi kerak, baribir. Nega desangiz, menga o'xshagan, bu sohada tajribasi bor, o'qib-o'rganaman, qishlog'imni obod qilaman deydi qishloq yoshlar ko'p.

“BIR ESHIK YOPILSA, IKKINCHISI OCHILADI...”

– Bir eshik yopilsa, ikkinchisi ochiladi... – deydi Bahrom ismli abiturient yigit. – O'tgan yili ukam 110 ball to'plab, o'qishga kirolmagandi. Hozir turizm yo'nalishida xususiy oliygohda o'qiyapti. Menga grantga ikki ball yetmadi, kontraktga o'qimadim, xususiyda ham o'qigim kelmagandi. O'qishga o'rtinchi yil topshirishim. Lekin xususiy o'quv yurtlarining ham yaxshi tomoni ko'p, yoshlar uchun barcha shart-sharoit bor. Taqdir ekan, ota-onamiz olamdan o'tib ketishgan. Ukam ikkalamiz ham ishlab, ham o'qiyamiz. Men ham ishlab, ham o'qishga tayorlandim. Singlim hali maktab o'quvchisi. Agar grantga kirib ketsam, ishlab, kontrakt uchun yig'ib qo'ygan pulimni singlimning repetitoriga to'layman.

“KONTRAKT PULI CHO'NTAKNI QOQADI-KU...”

Ekranga ko'z tikib o'tirgan qancha-qancha ota-onalarning orzusi bitta – bolam o'qishga kirsin, oliy ma'lumotli bo'lsin, deydi Iltihonga kirgan abiturientlari ularning hamrohlari bir tomon bo'lsa, uddaburon konsalting firmalari xodimlarini, yangi ochilgan xususiy ta'lim

muassasalarining reklama materiallarini tarqatuvchilar bir tomon. Ular ham fursatdan foydalanib qolay deb, kunning issig'iga qaramay, o'z xizmatlarini, yangi, zamonaviy o'quv dargohlarini reklama qilish bilan ovora.

Lekin baribir ota-onalarning ko'pchiligi farzandi nodavlat oliy ta'lim muassasasida o'qishini istamayotganiga guvoh bo'ldik. Buning sababini so'raganimizda “bugun bor, ertaga yo'q!”, “diplom o'tadimi hali!”, “kontrakt puli cho'ntakni qoqadi-kul!”, “boylarning bolasi o'qiydi-da unaqa joylarda, 30-40 million to'lab!”, “bir yarim million oylik ol-sam, bolamni unaqa joyda o'qitmayman...”, “ta'lim kreditini ham to'lash kerak, qizimni shuncha qarz bilan uzatsam, kim quda bo'lishga rozi bo'larkan, o'ylab qoldim...” deganga o'xshash hayotiy, achchiq haqiqatlarga, ammo ochiq fikrlarga ham duch keldik.

“UCH SOAT JUDA TEZ O'TIB KETDI”

Olmaliqlik dugonalarni ham suhbatga tortdik. Qizlarning biri O'zDJTU talabasi ekan. O'tgan yili o'qishga kirgan ekan. Bu yil ikkita dugonasiga hamrohlik qilib kelibdi.

– O'qishga kirib, oliy ma'lumot olib, Olmaliq kon-metal-lurgiya kombinatida ish-lamoqchiman, – deydi o'zini Marjona deb tanishtirgan abiturient singlimiz. – Kirishimiz biram qiyin bo'ldiki, ancha payt issiqda kutib qoldik. Xalijam yopiq binoda ekan test bo'ladigan joy. To'g'risi, repetitorga qatnab o'qimaganman. Lekin o'zim yaxshigina tayorlanganman. Shuncha kutgan-dik test olinadigan kunni. Uch soat juda tez o'tib ketdi. Juda ko'p biladigan narsalarim tushdi. Omad tilang, opajon, yaxshi ball olsam kerak deb turibman...

Quyosh botib qolmay Olmaliqqa yetib olay degan uch dugonaning dadilligi, ahilligiga havas qildik. Oy qizlarning yuragi to'la orzulari ushali shi niyat qildik.

Yozganlarimiz hayajonli lahzalardan, betoqat kutish onlaridan bir parcha, xolos. G'alvir suvdan ko'tarilib, yoshlarning bilimlari sinovdan o'tadigan imtihonlar esa davom etmoqda. Talaba bo'lish orzusidagi barcha abiturientlarga omad yor bo'lsin!


Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
Madina HAMDAMOVA,
“Inson va qonun” muxbirlari

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



NAMANGAN

NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTINING LITSENZIYASI BEKOR QILINSA, UNDA TAHSIL OLUVCHI TALABALAR TAQDIRI NIMA BO'LADI?



- NODAVLAT oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan. Bir kun kelib ularning litsenziyasi bekor qilinsa, xususiy yoki nodavlat oliy ta'lim muassasalarining diplomini tan olinadimi?

Z. SHARIPOVA



- Ta'limning oliy ta'lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda va tizimda nodavlat sektorining ham o'rnini tobora ortib bormoqda. So'nggi yillardagi o'zgarishlar, yangilanishlar samarasi o'laroq bugun oliy ta'lim sohasida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining soni ham ko'payib bormoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 31-moddasiga ko'ra nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi, litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq xizmat ko'rsatadi. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjatni beradi. Demak, tegishli tartibda litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan berilgan hujjat, ya'ni diplom butun respublika hududida tan olinadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihat borki, nodavlat ta'lim tashkiloti litsenziyasi bekor qilingan taqdirda, ta'lim tashkilotida tahsil oluvchi talabalar taqdiri nima bo'ladi, degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Bu masalada ham qonunchiligimizda huquqiy yechim mavjud. Prezidentimizning 2023-yil 3-iyuldagi 200-sonli qaroriga ko'ra, litsenziyasi bekor qilingan ta'lim tashkiloti yoki yopilgan ta'lim dargohida tahsil olayotgan talabalarga o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish huquqi beriladi. Bundan xulosa qilsa bo'ladi, nodavlat ta'lim muassasasi litsenziyasi bekor bo'lgan taqdirda ham, undagi talabalarining talabaliq maqomi yo'qolmaydi hamda ushbu talabalar o'z o'qishini davlat yoki nodavlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish va shu oliygo'hlarda o'qishini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dilmurod YO'LCHIBOYEV,

Davlatobod tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



TOSHKENT

Qibray tuman adliya bo'limi tomonidan 2023-yilning 6 oyi mobaynida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari manfaatini ko'zlab sudlarga 30 dan ziyod da'vo arizalari kiritildi. Da'vo arizalarining 98 foizi qanoatlantirilgan.



Jumladan, tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kutubxonachi lavozimida faoliyat yurituvchi 22 nafar xodim tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, ularga tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qo'shimcha haq to'lanmagan haq to'lanmayotganidan norozi bo'lib, to'lovni undirishda amaliy yordam berishni so'ragan.

Aniqlanishicha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzoq vaqt-


dan beri faoliyat yuritib kelayotgan kutubxonachilarga 2019-2022-yillar davomida maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qo'shimcha haq to'lanmagan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-sentabrdagi "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida"gi qarori 1-ilovasining 23-bandida maktablar,

barcha tur va nomdagi maktab-internatlar, o'rta maxsus va hunar-texnika o'quv yurtlari kutubxonachilariga yoki boshqa xodimlarga darsliklarning kutubxona fondi bilan shug'ullanganliklari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,6 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi. Keyingi har 1 ming 500 nusxa darsliklar uchun 5 foiz, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10,6 foizi miqdorida ko'p bo'lmagan qo'shimcha haq to'lanishi belgilangan.

Kutubxonachilarning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Chirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan kutubxonachilarga 23 million 448 ming 946 so'm qo'shimcha haq to'lab berildi.

Jahongir ABDUSATTOROV,
Qibray tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



TOSHKENT

Bekobod tuman adliya bo'limiga joriy yilning olti oyi davomida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan 116 ta murojaat kelib tushgan. Shulardan 60 tasi qanoatlantirilib, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari tiklandi. Qolgan murojaatlar yuzasidan huquqiy tushuntirish berilgan.



BESH YILGA KECHIKKAN ISH HAQI UNDIRILDI

Jumladan, tumanda joylashgan 7, 24 va 27-sonli maktabgacha ta'lim muassasasining 49 nafar xodimiga 2018-2019-yillarda to'lanishi kerak bo'lgan 139 million 637 ming 492 so'm oylik ish haqi to'lab berilmagani yuzasidan murojaatlar kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar o'rganilib, fuqarolik ishlari bo'yicha Bekobod tumanlararo sudiga xodimlar manfaatini ko'zlab, da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan ularning to'lanmay qolgan 139 million 637 ming 492 so'm oylik ish haqlari undirib berildi.

Shuningdek, "Zafar gaz prom" MChJning tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan olingan metan yoqilg'isi uchun 167 million 732 ming so'm to'lab bermayotgani yuzasidan adliya bo'limiga qilgan murojaati ham o'rganildi. O'rganishlar natijasida "Zafar gaz prom" MChJ manfaatini ko'zlab, Bekobod tumanlararo iqtisodiy sudiga davo arizasi kiritildi. Sud tomonidan davo arizasi to'liq qanoatlantirilib, "Zafar gaz prom" mas'uliyati cheklangan jamiyati foydasiga 167 million 732 ming so'm undirildi.

Qahramon JO'RAYEV,

Bekobod tuman adliya bo'limi boshlig'i



SIRDARYO

Fuqaro L. Konovalova qo'shni Qozog'iston Respublikasiga borib-kelishga imkoniyati yo'qligi sababli otasining vafot etgani to'g'risidagi guvohnomani olishda amaliy yordam berishni so'rab Yangiyer shahar adliya bo'limiga murojaat qildi.

QOZOG'ISTONDAN GUVOHNOMA OLIB BERILDI



Murojaat muallifi 1959-yil 23-fevralda Qozog'istonning Kentau shahrida tug'ilgan otasi Dmitriy Georgiyevich Chaltapasidining 2011-yil 17-aprelda Qozog'iston Respublikasining Kostanay viloyati, Qamisti tumanida vafot etganini bayon qilgan.

Shunga ko'ra, Yangiyer shahar adliya bo'limi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan Minsk konvensiyasi asosida hujjatlar so'rov yo'li bilan Kostanay viloyati, Qamisti tuman FHDY bo'limiga yuborildi. Joriy yilning 20-iyul kuni Qamisti tuman "ZAGS" bo'limidan kelib tushgan ma'lumotga asosan L. Konovalovaga otasi D. Chaltapasidining vafot etgani to'g'risidagi guvohnoma berildi.

Nafosat ABDULHAKIMOVA,
Yangiyer shahar adliya bo'limi FHDY bo'limi mudirasi

E'tibor berib qarasa, Yangi O'zbekiston uylarini avvalgidek "XMKK" yoki "PMK" tashkilotlari emas, balki zamonaviy qurilish texnikalari va tajribali muhandislar bilan ta'minlangan kompaniya va jamiyatlar, tadbirkorlik subyektlari barpo etmoqda. Sohada "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining joriy etilishi esa korrupsiya, tanish-bilishchilik singari qurilish sifatiga putur yetkazuvchi illatlarga barham berdi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasidagi barcha islohotlarning markaziga inson qadri, uning manfaatlarini ta'minlash bosh maqsad qilib qo'yildi.

Sirdaryo taraflarga yo'lingiz tushsa, bu yerda bo'layotgan o'zgarishlar yangi-yangi, zamonaviy binolarni ko'rib, yangi shahar bunyod bo'layotganiga amin bo'lasiz. Boshqa hududlar qatori Sirdaryo viloyati ham ayni paytda ulkan bunyodkorliklar maydoniga aylangan. Viloyatda "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali tender tanlovlarini onlayn tarzda o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu esa ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflash barobarida qurilish sifatini ham ta'minlamoqda. Qolaversa, 39 ta mezon asosida pudratchilar reytingi aniqlanib, ular toifalarga ajratilgan. Shuningdek, tashkilotlarni ixtisoslashuvi bo'yicha toifalarga ajratgan holda baholash tizimiga ham o'tildi.

Eng muhimi, bunyodkorlik jaryonlarida Prezidentimizning 2020-yil 28 dekabrda "2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 22-yanvardagi "2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bunyodkorlik ishlariga dasturilamal bo'lmoqda.



Mazkur qarorlar ijrosini ta'minlashda "Guliston madad qurilishi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ham o'ziga xos o'rne bor. Ishbilarmon va tajribali hamyurtimiz Yusufjon Qoraboyev rahbarlik qilayotgan jamoa Prezidentimizning insonlarga munosib turmush sharoitini yaratish, kelajak avlodlarga obod Vatan qoldirish, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan mehmonlar qalbidagi jannatmonand diyorumizga nisbatan havas uyg'otish kabi ezgu tashabbuslari va takliflariga hamisha "labbay" deya javob berayotir.



YANGI O'ZBEKISTON UYLARI ULARNI BUNYOD ETISHDA

"Guliston madad qurilishi"ning ham hissasi bor

Keyingi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nafaqat shaharlarimizda, balki, qishloq hududlarida ham yangi-yangi binolar qurilmoqda. Barcha tuman va shaharlarimizda zamonaviy, ko'rgan ko'zni quvnatadigan Yangi O'zbekiston uylari qad rostlamoqda. Mazkur bunyodkorliklar ko'lamin bir-ikki og'iz gap bilan ta'riflash mushkul. Eng muhimi, minglab uy-joyga muhtoj va ehtiyojmand oilalar o'zining yangi uy-joylariga ega bo'lmoqda.

"YURTDOSHLARIMIZNING QUVONCHIGA SHERIKMIZ..."

– Jamiyatimiz tashkil topganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q, – deydi Yusufjon Qoraboyev. – Qisqa fursatda viloyat hokimligi buyurtmasiga asosan ko'plab obyektlarni qurib, foydalanishga topshirdik. Dastlab ishlarimiz biroq qiyin kechgandi. Ikki ta tumanda 30 ta namunalni uy qurdik. Natijada ipoteka kreditlari asosida aholini uy-joy bilan ta'minlashning maqsadli parametrlari ijrosi ta'minlandi. Yangi uylarda mamnuniyat bilan yashayotgan yurtdoshlarimizning quvonchiga sherik bo'lganimizdan baxtiyormiz.

Yusufjon Qoraboyev boshliq bunyodkorlar jamoasi nafaqat qurilish ishlarini amalga oshiradi, balki qurilish materiallari ham ishlab chiqaradi. Binoning poydevori pishiq bo'lishidan tortib, u foydalanishga topshirilgunicha bo'lgan barcha jarayonlar sifat nazoratidadir. Eng muhimi, aynan shu qurilish tashkilotiga tegishli g'isht va sement korxonalari ham faoliyat yuritarkan. Tadbirkor mahalliy lashtirish orqali o'zi qurayotgan yangi uylar qiymati va tannarxini 10 foizga arzonlashtirishni mo'ljallagan. Bu bilan har yili viloyatda 10 trillion so'm mablag'ni iqtisod qilib, boshqa ehtiyojlarga sarflash mumkin.

EZGULIKLAR ME'MORI

"Guliston madad qurilishi" MChJ tomonidan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari asosida Sayxunobod tumanidagi 27-umumta'lim maktabi rekonstruksiya qilindi. Oqoltin tumanidagi musiqa va san'at maktabi, Yangiyer shahridagi Saxovat uyi, viloyat Ko'zi ojiz va ko'zi zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashgan maktab-internatining 176 o'rinli yangi binosi, Guliston tumanidagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabi, Guliston shahrida esa 85 o'rinli tug'uruq

kompleksi barpo etildi. Bu obyektlarga tabiiy gaz, elektr energiyasi va ichimlik suvi tarmoqlari tortildi, sirdaryolik yo'shlar va aholi uchun qulayliklar yaratildi.

"Guliston madad qurilishi" MChJ viloyat markazi Guliston shahriining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish ishlarida ham chetda turgani yo'q. Viloyat hokimligi binosi, viloyat IIB PPX bataloni binolaridagi ta'mirlash ishlari shular jumlasidandir.

Yusufjon Qoraboyevning ta'kidlashicha, endi yurtimiz qurilish sohasiga seysmologiyaga oid xalqaro tajribalar ham tatbiq etiladi. Bu boradagi qonunchilikni va normativ hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha Yaponiya va Janubiy Koreyaning tajribali mutaxassislari bilan hamkorlik o'rnatilgan. Birgina 2023-yildagi 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar va 100 dan ortiq standartlar qayta ko'rib chiqildi.

Viloyat hududida odamlarning baxtli va farovon yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hududlarda qad rostlayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlari aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi, albatta. Viloyatning Yangiyer shahrida bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi ham ana shunday bunyodkorliklardan biridir. 2 va 3 xonali uylarning



zamonaviy arxitektura yechimiga egaligi, eng muhimi, arzon va sifatli, shaharsozlik qoidalari asosida qurilayotgani tahsinga loyiq. Eng reaktiv, bu uylarda energiya tejamkor manbalari mahalliy qurilish materiallaridan foydalanilmoqda.

Massivda ko'p qavatli uylar bilan birga poliklinika, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, mahalla va madaniyat markazi, sport inshootlari hamda xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurilmoqda. Massivdagi bunyodkorlik ishlari ko'lamin ayni paytda bu yerda 18 ta qurilish tashkiloti jamoasi mehnat qilayotganidan ham anglash mumkin.

Biz esa zavqu shavq bilan kelajak binolarini qurayotgan sirdaryolik bunyodkorlarning ishini kuzatar ekanmiz, beixtiyor ularni ezguliklar me'mori degimiz keldi.

Gulijahon ASHUROVA, jurnalist


6 KONSTITUTSIYANI O'RGANAMIZ

BILASIZMI?



Mehnat kodeksining yangi tahririga ko'ra bayram sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, ishlamaydigan kun qo'shib beriladi.

BAYRAM SANASI DAM OLIŞ KUNI BO'LSA, ISHLANMAYDIGAN KUN QO'SHIB BERILADI



Kodeksning yangi tahririda ishlamaydigan bayram kuni dam olish kuniga to'g'ri kelsa, u holda dam olish kuni ishlamaydigan bayram kunidan keyingi ish kuniga ko'chirilishi ko'rsatib o'tilgan. Masalan, yakshanba – dam olish kuni 1-sentabrga to'g'ri kelsa, dam olish kuni dushanbaga ko'chiriladi.

Ishlab chiqarish – texnika sharoitlari va tashkiliy sharoitlarga (uzluksiz ishlaydigan korxonalar, aholiga kundalik xizmat ko'rsatish va boshqalar) ko'ra ishni to'xtatib turish mumkin bo'lmagan joylarda ishlamaydigan bayram kunlari ishlarni bo'jarganda dam olish kunlari ko'chirilmaydi.

Dam olish kunlaridan va ishlamaydigan bayram kunlaridan xodimlarning oqilona foydalanishi maqsadida dam olish kunlari Prezident farmoni bilan boshqa kunlarga ko'chirilishi mumkin. Kodeksda nazarda tutilgan hollardan tashqari dam olish va ishlamaydigan bayram kunlarida ishlatish taqiqlanadi, deyiladi normativ-huquqiy hujjatda. Shuningdek, kodeksdagi asosiy yangiliklardan yana biri yillik asosiy mehnat ta'tili davomiyligining eng kam muddati yigirma bir kalendar kuni etib belgilandi va xalqaro standartga muvofiqlashtirildi. Ilgari ta'til 15 ish kunidan davom etardi.

Valijon RAVSHANOV,

Sariosiyo tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

E'OLON

Advokat Nizomov Sardor Nurudinovich "DO'STLIK ADVOKATI" advokatlik byurosiga ishga kirganligi munosabati bilan unga 186-sonli;

advokat Karimov Melsjon Kamilovich "KAFOLAT" advokatlar hay'atiga ishga kirganligi munosabati bilan unga 187-sonli yangi advokatlik guvohnomasi berildi.

Davlat o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmini samarali ro'yobga chiqarish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bular-dan eng muhimi sifatida yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishini e'tirof etishimiz mumkin. Negaki, aynan Bosh qonunimizda davlatimizning nafaqat demokratik suveren davlat ekani, balki huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani ham asosiy qoida sifatida o'rnatilgan (1-modda).



Buning ma'nosi, xususan, mamlakatimizning ijtimoiy davlat ekani, O'zbekistonning har bir inson uchun farovon turmush darajasi, jumladan, sifatlil ta'lim, kafolatlangan tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatil ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan ijtimoiy tafovut yumshatiladigan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatil davlat ekanini anglatadi.

HECH BIR FUQARO

O'Z MUAMMOLARI BILAN

yolg'iz qolmaydi




Yangi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan 3 barobar ko'paytirildi. Ana shunday majburiyatlardan biri 10-bobida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu bobning eng asosiy jihati har kimga o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlarining oshganligida. To'g'ri, oldingi Konstitutsiyamizda ham davlat fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilishini kafolatlagan. Bundan tashqari, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlab qo'yilgan. Shuningdek, shaxsning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash masalasi uning hayotida o'ta muhim o'rin tutganligi sababli, sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni apellyatsiya, kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish institutlari joriy etilgan.

Yangi Konstitutsiyada esa davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi tufayli shaxsga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar miqdori qoplab beril-

shi kafolatlanmoqda. To'g'ri, bunday qoida va uni amalga oshirish mexanizmi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, Yer kodeksi, "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar-da o'rnatilgan. Ularning ijrosi natijasida 2022-yilda 4 ming 645 ta davlat organlari qarorlari sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilib, yetkazilgan zarar undirilgan. Ushbu qoidaning Konstitutsiyada o'rnatilishi esa kompensatsiya bilan bog'liq bo'lgan bunday kafolatning yana mustahkam bo'lishiga, bu bilan bog'liq qonun hujjatlarining mukammal bo'lishi va ular ijrosini ta'minlash natijasida inson huquqlarining to'liq ta'minlanishiga xizmat qiladi. Ushbu qoida Asosiy qonunimizning eng asosiy qoidalaridan biridir.

Shu bilan birgalikda shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki imkoniyatlardan foydalanib bo'lganidan so'ng, xalqaro organlarga murojaat etish huquqi ham berilmoqda (55-modda). Endi ushbu qoidaga ko'ra shaxsga o'z davlatida yaratilgan barcha huquqiy himoya mexanizmlaridan ham qoniqmagan



taqdirda, o'z haq-huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish va nizolashayotgan masalasi xalqaro hujjatlar (konvensiya, xalqaro pakt va boshqalar)dan foydalangan holda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Albatta, bunda fuqaro, dastavval, o'z huquqlarining buzilishi natijasida milliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi shart. Mazkur qoida fuqarolarga o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga davlatning xalqaro normalarga sodiqligini ham anglatadi.

Ushbu qoidalarning mantiqiy davomi sifatida Konstitutsiyaning 56-moddasini keltirish mumkin. Ushbu moddaga ko'ra, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hamda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi.

Bu qoidaning mazmuni shundan iboratki, fuqaroning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash faqatgina tegishli sudlar orqali emas, balki inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ko'magida ham amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda milliy institutlar tizimiga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes-ombudsman), inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Ombudsman huzurida Bola huquqlari bo'yicha ombudsman kabi institutlar kiritilib, ularning maqomi konstitutsiya darajasida ko'tarilmoqda. Shu bilan birgalikda ushbu norma xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplarining muvaffaqiyatli implementatsiyasi, desak xato bo'lmaydi. Negaki, BMTning 1993-yildagi rezolyutsiyasi bilan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning maqomiga oid prinsiplar qabul qilingan. Butun dunyoda "Parij prinsiplari" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu hujjatda har bir davlatda tashkil etiladigan milliy huquqni himoya qilish institutlarining faoliyatiga oid eng muhim qoidalar belgilab qo'yilgan.

Ushbu institutlarga konstitutsiyaviy maqom berilishi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Karima RAJABOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi



TOSHKENT

YANA SNOS, YANA TOVON PULI...

Fuqaro Q. Xudaybergenova Qibray tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya to'lovini undirishda amaliy yordam berishni so'rab Mirobod tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.



Murojaat o'rganilganda, Q. Xudaybergenovaga Qibray tuman hokimining 2019-yil 10-iyuldagi qaroriga muvofiq vujudga kelgan xususiy mulk asosida tegishli bo'lgan Yashnobod (Qibray) tuman,

"Tashisti" MFY, "Tuzel" ko'chasida joylashgan kadastr hujjatlariga binoan yer maydoni 0,1558 kv.metrni tashkil etgan uy-joy davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani, Toshkent viloyat hokimining 2018-yil 10-fevraldagi va Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi qarorlariga asosan Qibray tumanidagi Tuzel va Yangiobod qishlog'idagi bir qator yer maydoni davlat zaxira yerlari tarkibiga o'tkazilgani ma'lum bo'ldi.

Haqiqatan ham, Qibray tuman hokimining 2019-yil 14-martdagi qarori bilan tumandagi "Tovkent tepa", "Tashisti", "Jarboshi" va "Ibrat" MFY

hududlarida yashovchi fuqarolarning turar-joylari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan noturar bino inshootlarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun mulkdorlar hisobidan buzishga ruxsat berilgan. Ammo 2022-yil holatida baholash hujjatlariga ko'ra, baholangan 692 million 321 ming so'm kompensatsiya puli to'lanmagan.

Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan Q. Xudaybergenovaning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi qanoatlantirildi va sudning hal qiluv qaroriga asosan Q. Xudaybergenovaning 699 million 321 ming so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Amir SHAMSIQULOV,
Mirobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

BOG'NI BUZGAN BEDODLAR



Xalqimizda "Yaxshidan bog' qoladi", degan naql bor. Bu shubhasiz, insonlarni umri davomida yaxshilik qilishga, ezgu ishlarga bosh bo'lishga undaydigan ibratli aqida. "Olg'abos agro fayz" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Ya. Mengliqulov ham yaxshi niyatlar bilan peshona teri evaziga yaxshi bog' yaratgandi.

Quyil Chirchiq tuman hokimining 2012-yilning 11-iyuldagi qarori bilan MChJ tashkil etilib, tuman hokimining mazkur qarori bilan yangi "Olg'abos agro fayz" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga 15,07 gektar yer maydoni birlashtirib berilgan edi. Ushbu yer maydoniga MChJ tomonidan 2012-yilda 827 tup "super leto" navli olxo'ri, 413 tup terak ko'chatlari ekib, parvarish qilindi, katta bog' barpo etildi. Tadbirkor bu bog'ni bog' qilaman, deb ancha ter to'kdi, tinimsiz mehnat qildi. 417 million 854 ming so'm mablag' sarf-xarajat qilinganiga qaramasdan, bog' maydonlari tuman hokimligining qaroriga asosan tuman zaxirasiga qaytarilib, mevazor bog' buzib tashlangani albatta MChJ rahbarining haqli e'tiroziga sabab bo'ldi.

Yerni qaytarib olib, bog'ni buzib tashlagan, tadbirkorga katta miqdorda moddiy zarar yetkazgan tuman hokimligi MChJga tovon puli to'lamagani undan ham oshib tushdi. Shundan so'ng MChJ rahbari yetkazilgan moddiy zararni undirib berishda amaliy yordam so'rab, Quyil Chirchiq tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Adliya bo'limi tomonidan murojaat o'rganilib, "Olg'abos agro fayz" mas'uliyati cheklangan jamiyati manfaatida Quyil Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi, sudning hal qiluv qaroriga asosan "Olg'abos agro fayz" MChJ foydasiga 417 million 854 ming so'm yetkazilgan zarar va sarf-xarajatlar qoplanishi ta'minlandi.

Davron GULMETOV,
Quyil Chirchiq tuman adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

Fuqaro I.I. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Shayxontohur tuman bo'limiga ayrim ishlagan yillarini qayta hisob-kitob qilish bo'yicha murojaat etgan, lekin 1982-yildan 2017-yilgacha ishlagan davrini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etmagani uchun pensiya tayinlashda hisobga olinmagani-dan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

32 YILLIK

ISH STAJI

inobatga olinmagan



Aniqlanishicha, haqiqatan ham fuqaroning 1982-yildan 2017-yilgacha ishlagan davri pensiya tayinlashda hisobga olinmagan. Mehnat kodeksining 125-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomning 56-bandiga asosan mehnat daftarchasi ish stajini hisoblaydigan asosiy hujjat sanaladi.

Prezidentimizning 2021-yil 3-fevraldagi qarorining 10-bandiga ko'ra, pensiya tayinlashda shaxsning ish haqi va mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi yuritilmagan davr - 2005-yildan avvalgi yillar uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinmasdan hisoblanishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

Shunga ko'ra, fuqaro I.I. manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga pensiya bo'limining pensiya tayinlash to'g'risidagi qarorini haqiqiy emas, deb topish va fuqaroning 1982-yildan 2017-yilgacha ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash yuzasidan shikoyat arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan, pensiya bo'limining qarori haqiqiy emas, deb topildi va fuqaroning o'ttiz ikki yildan ortiq ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash majburiyati yuklandi.

Doniyor ABDUMALIKOV,
Shayxontohur tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti

8 ADLIYA FAXRIYLARI**SURATI-HAM, SIYRATI HAM
GO'ZAL AYOL**

Insonning suratiga qarab ko'p narsalarni anglash mumkin. Masalan, chehrasidan samimiynatni, ko'z qarashlaridan qat'iyatni, kiyinishidan madaniyatni his etish mumkin. Mavsuma Subxonovnaning surati yozuvchi Anton Chexovning "Insonda hammasi narsa go'zal bo'lishi kerak: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham" degan ajoyib talabni beixtiyor esga soladi.

Qahramonimizning tarjimai holi-da mutaxassisligi haqidagi qaydlarda tovarshunos va huquqshunos degan yozuvlarning yonma-yon turishi kishini biroz taajjubga soladi. Bu bir-biridan uzoq sohalarni Mavsuma opa nega tanladi, nega mehr qo'ydi, degan savol ham xayolga kelishi tabiiy. Bu balki izlanuvchan ayolning chuqur bilimi, yuksak mahorati, o'ziga ishonchi, cheksiz salohiyatidan dalolatdir.


Mavsuma opa samarqandlik. Samarqand kooperativ institutining tovarshunoslik va oziq-ovqat molari savdosini tashkil qilish fakultetini 1974-yilda tamomlagan. Mehnat faoliyatini esa Samarqand oliy tajriba tijorat bilimgo'hi kollejinining laboranti sifatida boshlagan, keyinchalik uzoq yillar shu bilim dargohida o'qituvchilik qilgan. Va mana shu o'qituvchilik faoliyati unga huquqshunoslik sohasini tanlashga ko'prikk bo'lgan, deyish mumkin. Huquq fanidan o'quvchilarga dars berish jarayonida huquqshunoslik kasbiga talab va taqdir tufayli bog'langani aniq. Ota kasbiga mehr uni Samarqand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetida o'qishga va huquq olamiga dadil qadam tashlashiga sabab bo'ldi.

O'tgan asrning saksoninchi yillari oxirida M. Narziqulova hayotining yangi sahifasi boshlandi. U Samarqand shahar ijroiya qo'mitasida yo'riqchi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Oradan uch yil o'tib, qurilish vazirligiga qarashli Samarqand shahar loyiha instituti kadrlar bo'limi boshlig'i va keyinchalik shu institutning huquqshunos vazir-fasida ishladi.

To'qsoninchi yillarning boshlarida Mavsuma opaning hayoti fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tizimi bilan chambarchas bog'landi. Dastlab Samarqand shahar Bog'ishamol tuman FHDY bo'limi katta inspektori, shahar Temiryo'l tuman FHDY bo'limi katta inspektori sifatida xizmat qildi. Sohaning pastu balandini o'rgandi, tajriba orttirdi. Keyinchalik Nurobod tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudirasi sifatida fuqa-



Darhaqiqat, shoir aytmog'chi: "Hayotning har lahzasini go'zal, Umrning har dami g'animat!" Biz bugun sizga tanishtirmog'chi bo'lgan faxriylarimizning har ikkisi ham hayotning qadrini biladigan, umrning har lahzasini qadrlaydigan, kuchli ishonch falsafasi bilan umr kechirayotgan hurmatli va aziz insonlar.



HAYOTNING *har lahzasini go'zal*

rolarga huquqiy yordam ko'rsatishga, huquqiy mavzulardagi muammolar yechimi yuzasidan maslahatlar berishga mas'ul bo'ldi. Hatto huzuriga farzandiga tug'ilganlik haqida guvohnoma olish uchun kelgan otanonalar o'g'il yoki qiziga ism tanlashda ham opaga quloq tutadigan, maslahat soladigan so'zi sinmaydigan soha egasiga aylandi. Mavsuma opaning xotirlashicha: "Ba'zida otanonalar o'g'liga Qo'chqor, Toshbolta, O'roq, Sarimsoq degan g'altismlarni qo'yaman deb huzurimga kelganida, ularga "O'lo'lo' sizga chiroyli farzand berdi, unga hadisu shariflardan, sharqona qadriyatlarimizga mos chiroyli o'zbekona ism qo'ysangiz yaxshi bo'ladi" deb tushuntirish men uchun qarz deb hisoblaganman. Ba'zan otanonalar qizlariga ajnabiy-larning ma'nosiz ismlarini qo'yishni so'rab murojaat qilganida, ularni bu yo'ldan chiroyli tushuntirish bilan qaytarganman, fikrini o'zgartirganman, maslahatimga quloq solib ayrimlari ikkilanmasdan boshqa ism tanlagan, hatto sizning ismingizni qo'yamiz, yozing qizimizning ismi Mavsuma bo'la qolsin, degan qarorga ham kelganini hozir o'z gacha faxr bilan esga olaman", deydi Mavsuma opa. Bu, albat-ta, juda yoqimli.

Mavsuma Subxonovna har doim har ishda, ayniqsa, fuqarolar bilan muomalada madaniyat va ma'naviyat katta rol o'ynaydi, degan aqidaga amal qilgan.

Ayolning ishdan, mansabu dabda-

balardan balandroq yana bir martabasi bor. U ham bo'lsa onalik, mehribonlik. Ikki farzand, 5 nevara, 4 evara uchun sevimli inson bo'lish Mavsuma opaning chinakam baxti. Bu baxt unga kuch va yashash zavqini beradi. Sevimli nabira o'g'li Muhammadalining huquqshunoslikni tanlab, Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olayotgani esa Mavsuma Narziqulova uchun yana bir baxt va g'urur.

Hayot ulug' orzu-niyatlar, go'zal fazilatli insonlar bilan zavqlidir. Yaxshi niyatlarimiz bilan bu hayotni yanada charog'on etamiz. Qalbida ezgulik va go'zallik nurlari mavj urib turgan qahramonimizga hamisha yaxshilik hamroh bo'lsin, deymiz!

ADOLAT HAMISHA SHIORI BO'LDI

Boltaboy Kuryazov 1946-yil 12-avgustda Beshta qishlog'ida ishchi oilasida dunyoga keldi. Bolaligi urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri kelgan. Mehnat faoliyatini o'n yetti yoshida Xazorasp "O'zselxotexnika" idorasida oddiy chilangarlikdan boshlagan. 3 yillik harbiy xizmatni o'tab qaytgach, 1968-yilda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga sirt-dan o'qishga kirib, 1974-yilda o'qishni tamomladi. Huquqshunoslik faoliyatini Hazorasp tuman va Pitnak shahar sudlarida sud majlisi kotibligidan boshlab, keyinchalik sud ijrochisi, 1977-1987-yillarda sudya lavozimida ishlab, sud raisi darajasigacha ko'tarildi. Uning rahbarligi va sa'y-haraka-

ti bilan 1975-yilda Hazorasp tuman sudi joylashgan hozirgi ikki qavatli zamonaviy bino qurilib, jamoaning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Boltaboy aka odil sudlovni amalga oshirish yo'lida uzoq yillar samarali xizmat qildi.

O'sha davrda huquq tartibot idoralarida ishlash oson bo'lmagan, - deydi Boltaboy aka. - Sudlar ikki tomonlama, ya'ni Adliya ministrligi (u davrda vazirlik deyilmagan) va Oliy sud tomonidan boshqarilardi. Ustiga-ustak bizga partiya va sovet tashkilotlari ham xo'jayinlik qilib turli xo'jaliklarga vakil sifatida yuborardi, o'z ishimiz qolib, paxtachilik ishlaridan hisobot so'raradi. Zug'um yig'im-terim mavsumida ayni kuchayardi. Paxta "fronti"ning og'ir sitamlari va asoratlari hali-hanuz xotiramizdan ketgani yo'q.

B. Kuryazovning saksoninchi yillardagi hayoti va mehnat faoliyati esa adliya tizimi bilan bevosita bog'liq. U 1987-1997-yillarda Xorazm viloyat adliya boshqarmasida bosh maslahatchi, boshliq o'rinbosari va birinchi o'rinbosar lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. "Adliya katta maslahatchisi" xizmat unvoniga sazovor bo'ldi. Vazirlikning Faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi. Keyingi yillarda Xorazm viloyat hokimligida huquqni muhofaza qilish va faqulodda vaziyatlar bo'yicha guruh rahbari, viloyat notariuslar palatasida boshqaruv raisi lavozimlarida xizmat qildi. 2001-yildan boshlab Pitnak shahrida xususiy notariuslik amaliyoti bilan shug'ullandi. Qaysi lavozimda bo'lsa ham xalq xizmatida bo'ldi, adolat hamisha shiori bo'ldi.

Boltaboy akanning hayot yo'li e'tiborga loyiq. Mas'ul lavozimlarda uzoq yillar samarali mehnat qilish, odamlarning hurmatiga sazovor bo'lish nasib etgan fidoiy qahramonimiz oila qo'rg'onida ham ibrat olsa arzigulik. Turmush o'rtog'i O'g'iljon Kenjayeva bilan 7 nafar farzandni kamolga yetkazib, uyli-joyli, kasbu korli qilishdek ulug' ishdan huzur topgan, rahmat eshitgan "qozi bobo"ning el-yurtga munosib farzandlari hamda nabiralari taqdiridan ko'ngli to'q. Ularga bergan tarbiyasi, maslahatu nasihat-lari albatta o'z mevasini berayapti. Bu esa har bir ota-onaning yashashdan maqsadi va muddaosidir.

Umringiz faqat yaxshi lahzalardan iborat bo'lsin. Qutlug' yoshingizga yana yosh qo'shilsin, Boltaboy aka!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharrir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorbek Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" jitmoy-huquqiy jumali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tirajli - 3500
Buyurtma - 2271

Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5